

1. Qanday cho'llar bor?



Rasmlarga qarang. Ularda qanday umumiylig bor? Ular bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?



Loyli cho'l



Qumli cho'l



Toshli cho'l



Tuzli cho'l



Ushbu cho'llarning umumiylig va bir-biridan farqli tomonlarini yozing.

Cho'l – bu yog'ingarchilik kam yog'adigan, suv yetib borishi qiyin bo'lgan joylar. Cho'lda tuproq quruq, shuning uchun u yerda faqat qurg'oqchilikka chidamli noyob o'simliklar o'sadi.

Qumli cho'llar qum uyumlari – barxanlar bilan qoplangan. **Loyli cho'llarda** qatqaloq taqir tuproq ko'pburchak shaklidagi mayda bo'laklarga bo'linib, yorilib ketadi. **Toshli cho'llar** yirik va mayda toshlar bilan qoplangan bo'ladi. **Tuzli cho'llar** tuz bilan qoplangan. U xuddi yer yuzidagi qorga o'xshaydi.

2. Cho'l boyliklari

Odatda, bir vaqtning o'zida bir necha turdag'i tuproq ko'rinishiga ega aralash cho'llar ham uchraydi.

Cho'l og'ir sharoitli maskan bo'lsa-da, u yerda bir qancha hayvon va o'simliklar yashashga moslashgan. Cho'lda neft, gaz, oltin, marmar kabi foydali qazilmalarning konlari joylashgan. Shuningdek, ba'zi cho'llarda atrofi daraxtlar bilan qoplangan kichik ko'llar mavjud bo'lib, u yerda hayot gullaydi.



Rasmlarga qarang. Cho'l qanday foyda keltirishi mumkinligini ayting.



"Cho'l boyliklari" mental xaritasini to'ldiring.

3. Cho'l boyliklari haqida qiziqarli ma'lumotlar



Qumdan shisha, yo'lak uchun plitalar, g'isht, beton va shu kabi bir qancha qurilish materiallari ishlab chiqariladi. Bundan tashqari, qum turli xil rahgdagi bo'yoqlar bilan aralashtirilib, binolarning devorlarini bezash uchun ishlatiladi.

Neft – o'ziga xos hidga ega bo'lgan to'q jigarrang suyuqlik. U yer ostidan qazib olinadi. Neftdan avtomobil va samolyotlar uchun benzin, kerosin, shuningdek, plastmassa, rezina, bitum va bir qancha mahsulotlar olinadi.

Tabiiy gaz – bu biz ovqat pishiradigan, uylarni isitadigan va boshqa maqsadlarda foydalanadigan tabiiy boylik.



Cho'llarda aynan shu iqlimga moslashgan o'simlik va hayvonlar yashaydi. Ularning bir qismi "Qizil kitob"ga kiritilgan. Hozirgi kunda cho'llarda kiyik, sayg'oq va shu kabi noyob hayvonlarni asrash maqsadida davlat qo'riqxonalari tashkil etilgan.

Ajoyib cho'l hayvoni bo'lgan tuya xaritasini yarating. Unga tuyalar haqida qiziqarli ma'lumotlar yozing.



Daftaringizda istalgan hayvon uchun "tashrif qog'oz"ni yarating. Masalan, ajoyib cho'l hayvoni – tuya. Tashrif qog'oziga hayvonning rasmini yoki fotosuratini joylashtiring va hayvonning asosiy xususiyatlarini yozing: bo'yisi, vazni, qayerlarda yashashi. Unga tuya haqida o'zingiz bilgan qiziqarli ma'lumotlarni qo'shing. Har xil turdag'i tuyalarning nomlarini aytинг.

Tuya sutida sigir sutiga qaraganda foydali vitaminlar va minerallar ko'proq. Tuyaning juni esa, ayniqsa, bo'g'implari og'riydigan odamlar uchun juda foydali.



Hozirgi kunda sayyoohlар uchun Qizilqum cho'llariga turli sayohat va ekskursiyalar tashkil etilgan. U yerda sayyoohlар nafaqat tuyalarga minib sayr qilishlari, balki qadimgi qal'alarni ziyorat qilishlari, o'tovlarda tunab, tuya sutidan ichishlari mumkin.



Saksovul – ajoyib daraxt. U hatto sho'r cho'llarda ham o'sishga moslashgan. Saksovul shoxlangan ildizlari bilan qumlarni mahkam bog'lab, ularni shamol uchirib ketishidan saqlaydi. Saksovul juda yaxshi yonadi va katta miqdorda issiqlik chiqaradi. Shuning uchun u yaxshi yoqilg'i hisoblanadi.



Dunyodagi eng katta cho'llarning nomini daftaringizga yozing.



1. Cho'llar bizga yana qanday foydali boyliklar keltirishi mumkin?
2. Daftaringizda berilgan obyektlardan qaysilarini cho'lda uchratish mumkinligini eslang.